



*Oynisa MUXAMMADIEVA,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi*  
*E-mail: o.muhammadiyeva@gmail.com*

*O'zMU professori B.To'ychiyev taqrizi asosida*

### MIRZO BEDIL FALSAFIY QARASHLARINI SHAKLLANISHINING IJTIMOYIY-TARIXIY OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mirzo Bedil falsafiy qarashlarining shakllanishining ijtimoiy-tarixiy omillari, xususan XVI-XVII asrlarda O'rta Osiyo va Hindistondagi ijtimoiy-madaniy hayotning Mirzo Bedil falsafiy qarashlarining shakllanishiga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, Mirzo Bedil falsafiy qarashlarining shakllanishi va rivojlanishi atroflicha tadqiq etiladi.

**Kalit so'zlar:** Mirzo Bedil, O'rta Osiyo, Hindiston, boburiylar, vatanparvarlik, insonparvarlik, diniy hamjihatlik, falsafa, axloq, tasavvuf, "Irfon", "Chor unsur", "Ishorat va hikoyat".

### СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ МИРЗЫ БЕДИЛЯ

Аннотация

В данной статье раскрываются социально-исторические факторы формирования философских взглядов Мирзы Бедил, в частности влияние общественной и культурной жизни в Средней Азии и Индии в XVI-XVII веках на формирование философских взглядов Мирзы Бедил. Также подробно исследовано становление и развитие философских взглядов Мирзы Бедил.

**Ключевые слова:** Мирза Бедил, Средняя Азия, Индия, бабурийцы, патриотизм, гуманизм, религиозное единство, философия, мораль, мистика, «Ирфан», «Чор Унсур», «Ишорат ва хикаят».

### SOCIAL-HISTORICAL FACTORS OF THE FORMATION OF MIRZA BEDIL'S PHILOSOPHICAL VIEWS

Annotation

This article reveals the socio-historical factors of the formation of Mirza Bedil's philosophical views, particularly the influence of social and cultural life in Central Asia and India in the XVI-XVII centuries on the formation of Mirza Bedil's philosophical views. Also, the formation and development of Mirza Bedil's philosophical views are thoroughly researched.

**Key words:** Mirza Bedil, Central Asia, India, Baburians, patriotism, humanism, religious unity, philosophy, morality, mysticism, "Irfan", "Chor Unsur", "Ishorat va Hikayat".

**Kirish.** Mirzo Bedil falsafiy qarashlarining shakllanishining ijtimoiy-tarixiy omillari sifatida faylasuf yashab o'tgan Hindiston va O'rta Osiyodagi XVI-XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayot va ushbu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro madaniy munosabatlarning ta'siri e'tiborlidir. Hindistonda boburiylar sulolasi tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, ularning hind, musulmon aholisining turmush tarzidagi ifodasi kabi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Bedil axloqiy qarashlariga samarali ta'sir etgan. Shuningdek, bo'lajak buyuk allomaning ta'lim-tarbiyasi, ma'naviy kamolotiga yaqin qarindoshlari, qadimgi yunon, hind, Markaziy Osiyo diniy-falsafiy ta'limotlari, an'analari hamda buyuk faylasuf va mutasavviflarning falsafiy-axloqiy, tasavvufiy qarashlari g'oyaviy-nazariy asos, muhim omil bo'lib kelgan.

XVI-XVII asrlar O'rta Osiyodagi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotda burilish davri bo'ldi. Shayboniylar va ashtarxoniylar hukmronlik qilgan bu davrlarda O'rta Osiyoda qaror topgan ilm-fan, adabiyot va san'at hamda falsafiy tafakkur rivojini ikki asosiy yo'nalishda borganini ko'rishimiz mumkin. Bu yo'nalishlarning birinchisi – O'rta Osiyoning o'zida shakllangan bo'lib, bu yerda ko'plab tarixchi olimlar, adabiyotshunos va faylasuflar ijod qilgan. Ikkinchi yo'nalish – Hindistonda boburiylar davridagi O'rta osiyolik mutafakkirlarning ijodi va dunyoqarashidir.

XVI-XVII asrlarda O'rta Osiyoda Buxoro, Samarqand, Toshkent kabi yirik shaharlar asosiy madaniyat markazlariga aylangan. Bu yerda O'rta Osiyoning donishmandlari yig'ilishar edi. Xususan, shu davrda

Samarqandda matematik, astronom Maxmud ibn Muxammad, Mullo Abdul Ali Nizomiddin ibn Muhammad ibn Husayn Birjondiy, musiqashunos olim Amir Ali Akbar Samarqandiy, Muhammad Darvesh Samarqandiy va boshqalar yetishib chiqdi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoroda 350 ga yaqin mashhur adabiyotshunos va shoirlar yashagan va ijod qilganlar. Shu bilan birga Buxoro va Samarqand shaharlarida musiqa san'ati yuqori bosqichga ko'tarildi. Musiqa san'atining yuksalishida Mavlono Hasan Kavkabi, Mavlono Rizo, Mavlono Pirmuhammad Kulol va boshqalarning xizmati katta bo'ldi.

Jamiyat ma'naviy hayotida madrasalar muhim ahamiyatga ega edi. Ashtarxoniylar hukmronligi (joniylar, Buxoro xonlari sulolasi 1599-1753) davrida Buxoro, Toshkent, Samarqand kabi shaharlarda ko'plab masjid va madrasalar qurildi. Madrasalarda asosan kalom, matematika, geometriya asoslari, mantiq, arab tili, fors-tojik va o'zbek adabiyoti klassiklarining asarlari o'qitilar edi. Shuningdek, an'anaviy fanlardan tashqari Navoiy, Fuzuliy asarlari ham o'rganilgan. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoev saylovchilar bilan uchrashuvlardan birida "Men nufuzli xalqaro sammitlarda, jumladan, Hindiston va Pokiston davlatlarining rahbarlari bilan uchrashuvlarda Xusrav Dehlaviy, Abdulqodir Bedil, Mirzo G'olib singari buyuk sharq shoirlarining tarixiy vatani Kesh shahri bo'lganini, faxr bilan tilga olaman"[1], degan edilar. Bu ham Mirzo Abdulqodir Bedil ijodining bashariyat tarixidagi o'rni naqadar ulkanligini ko'rsatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XVI-XVII asrda falsafiy tafakkur rivojida mashhur faylasuf olimlar yetishib chiqdilar. Masalan, Mirzajon Sheroziy, Yusuf Qorabog'iy, Muhammad Sharif Buxoriy, Inoyatullo Buxoriy, Xusayn Xalxoliy shular jumlasidandir. So'fi Ollohyor, Boborahim Mashrabning tasavvufiy-falsafiy she'rlari ham xalq orasida mashhur edi. So'fi Ollohyorning "Mahzan ul-mute'iyin" (Mute'lar xazinasi), "Maslak ul-muttaqiyin", "Murod ul-orif" (Oriflar murodi) kabi kitoblari diniy-tasavvufiy g'oyalar bilan yo'g'rilgan bo'lib, ularda mehr-muhabbat, sabr-qanoat, imon-e'tiqod, kamtarlik va poklik kabi axloqiy muammolar tahlil etilgan. XVII asrda Movarounnahrda yashab, ijod etgan faylasuf olim Muhammad Sharif Buxoriyning falsafa, tarix, she'riyat, huquqshunoslik, tilshunoslikka bag'ishlangan ilmiy merosi, ular orasida axloqiy masalalarga bag'ishlangan "Favoiid hoqqoniyya" ("Hoqonga atalgan foydalar") kabi kitoblari ilmiy-ma'naviy tafakkur rivojida muhim ahamiyatga egadir.

Bu davrlardagi axloqiy, falsafiy fikrlar rivoji va madaniy hayotdagi o'zgarishlarning yana bir yo'nalishi – Hindistonda boburiylar davridagi O'rta osiyolik mutafakkirlarning ijodi va dunyoqarashi bilan bog'liqligidir.

XVI asrning ikkinchi yarmi Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy hayot katta o'zgarishlarning sodir bo'lishi bilan xarakterlanadi. Boburshohning o'g'li Xumoyunshohdan keyin davlatni boshqarish Humoyunning o'g'li Akbarshohga o'tdi. 1556 yilda Dehli taxtiga o'tirgan Akbarshohning zamoni boburiylar saltanatining eng fayzli davridir. Bu haqda manbalarda qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, "Mashhur Bobirshohning o'g'li Humoyunshohdan keyin hind hukumati Humoyun o'g'li Akbarshohga qoldi. Hijriy 923 da Dehli taxtiga mingan Akbarshoh o'lkasini kengaytirib berkitgandan so'ng tijorat, san'at, ilm, adabiyot ishlariga ahamiyat berdi. Eron, Turkiston hukumatlari bilan xabarlashib, yozishib turdi. Har tomondan olimlar, adiblar, ustalar, tojirlar Akbarshohdan foydalanmoq uchun Hindistonga qarab jo'nadilar. Dehli, Lohur, Agra kabi hindning ulug' shaharlari Akbarshoh paytida Sharqning ilmiy, adabiy, tijoriy ulug' markazlari bo'lib qoldilar" [2].

Akbarshoh Hindistonning qadimgi va o'rta asr madaniyatiga chuqur qiziqish bilan qaradi. Maktabda ta'lim olgan o'quvchi odobnoma, arifmetika, falakiyot, xo'jalik ishlari, boshqarish qoidalari, diniy bilimlar va fizika fanlarini mukammal egallashi lozim edi.

Akbar mahalliy aholining diniga hurmat bilan qarab, "sulhi kul" ya'ni musulmon va hindular umumiy dinining murosasozligi siyosatini targ'ib qildi. Akbarshoh zamonida musulmon va hindularni umumiy din murosasi ostida o'zaro hurmat va ma'rifatga yo'naltirilgan diniy - irfoniy siyosatiga ham alohida e'tibor berildi[3]. Akbarshohning diniy-irfoniy siyosat olib borishiga ta'sir etgan narsa – bu uning tasaavvuf ta'limoti bilan yaqindan tanishgani bo'lgan. Akbar ilgari surgan ushbu yangi din siyosatiga ko'ra, Hindistondagi barcha diniy oqimlar, jumladan musulmon, hinduizm va boshqalarning o'zaro totuvlik, tenglik hamda murosaga kelishlari, bir-birlarini hurmat qilishlari g'oyasi ilgari surilgan edi.

Akbar ilm-hunar egalarini Hindistonga kelishlari uchun juda keng imkoniyat yaratdi. Akbarshohning "sulhi kul" siyosati buning yaqqol misolidir. "Biz Hindistonda barcha uluslarning ichki urushsiz, tinch yashashlarini istab, hamma tomonlama tinchlik – sulhi kul siyosatini amalga oshirmoqdamiz. Odamlarga – tinchlik, saltanatga – xavfsizlik, barcha imonu e'tiqodlarga barobar ehtirom"[4], - degan murojaatnoma o'sha davrda mamlakatga keng tarqalgan edi.

Buyuk ajdodimiz Akbarshoh va u olib borgan siyosat haqida fikr bildirganda ma'rifatparvar hukmdorning diniy bag'rikengligini ham alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir. Akbarshohning diniy bag'rikengligini u olib

borgan siyosat orqali bilib olish qiyin emas. Masalan, Akbar tomonidan qurilgan 4 qismli "E'tiqodxon"[5] ning bir qismihindlar muqaddas sanaydigan qadimiy "Rigveda", ikkinchi qismi-otashparastlarning "Avesto"si, uchinchi qisminasorolarning muqaddas kitoblariga, to'rtinchi qisminasorlarning e'tiqodiga makon bo'lgan. Akbar turli e'tiqod vakillari bir davraga yig'ilsalar, haqiqatni bilishlari oson bo'lgay, xurofotu bid'at chekingay, degan fikrni ilgari surgan.

Akbarshohning ushbu murojaatnomasiga va olib borgan siyosatiga javoban turli mamlakatlardan olimlar, adiblar, ustalar va hunarmandlar Hindistonga kelib ijod qildilar. Dehli, Lohur, Agra kabi hindlarning ulug' shaharlari Akbarshoh davrida Sharqning ilmiy-adabiy, tijorat markazlariga aylandi.

Akbarshohni ilm-ma'rifatga e'tibor qaratilganligini shundan ham bilishimiz mumkinki, Akbar saroyida "nuhraton"- ya'ni "to'qqiz gavhar" degan ibora mashhur bo'lgan. Unda fan, adabiyot va san'atning to'qqizta yorug' yulduzlari, ular orasida Abulfazl ham o'rin olgan. Akbar ularni ma'naviyat gavhari deb atar edi. Akbarshoh o'zining kamolot sari intilishi, saltanatida ilm-ma'rifatga keng o'rin berishi bilan shoir, faylasuflar dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatdi va tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Akbar davrida O'rta Osiyo, Eron bilan Hindiston xalqlari o'rtasida madaniy hamkorlik, o'zaro aloqalar kuchaydi. Bu xalqlarning madaniyati bir-biriga muayyan ta'sir ko'rsatdi. Hindistonda Akbar hukmronligi davrida Muborak Nagoriy, Jaloliddin Tanisoriy, Shayx Abdulqodir al-Badayuniy, Iloxodod Sulton Puriy, Abulfazl Alloiy, Amin Ahmad Roziy kabi olimlar yashab ijod etganlar.

XVI-XVII asrlardagi Hindiston hayotining eng muhim omili bu diniy muammo bo'ldi. Bu davrda Hindiston aholisining bir qismi ajnabiy g'oliblar va O'rta Osiyo, Afg'oniston va Erondan kelganlarni tashkil etgan bo'lsa, boshqa qismi islomni qabul qilgan mahalliy aholi bo'lgan.

Hinduizmdagi ilk islohotchilik harakatlaridan biri bhaktiy oqimi bo'ldi. Ushbu harakat rasmiy hinduizm, tabaqalar (kastachilik)ka bo'lishga qarshi XIV-XV asrlarda shahar hunarmandlari orasida paydo bo'ldi. Dastlab tinchlik xarakterida bo'lgan ushbu harakatni musulmon hukmdorlari qo'llab-quvvatladi, chunki ularning mavqei braxmanlar dinining sha'niga putur yetkazishga qodir edi.

Bhaktiy harakati ilk bor shaharning o'ziga to'q savddoglar, hunarmandlar va sudxo'rlar qatlamlari orasida paydo bo'ldi. Ushbu qatlamlar orasidagi tengsizlik ularning bir maqsadga birlashishiga to'sqinlik qilardi. Ularning mafkuralarida feodallarga qarshi muxolifat bilan birga feodal hokimiyatiga faol qarshilik ko'rsatishdan voz kechish singari qarshilar ko'zga tashlanadi. Bhaktiy harakati hinduizmga ba'zi o'zgarishlarni kiritishni talab qilar edi.

Hindiston hayotidagi ijtimoiy tengsizlik va qashshoqlikka qarshi norozilik kayfiyati tasavvuf oqimida ham o'z aksini topdi. Tasavvuf oqimi Hindistonga dastlab IX asrlarda kirib borgan. Hindistonda tasavvufning suxrovardiya va chishtiya tariqati keng tarqaldi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, suxravardiya tariqatiga zardo'shtiylik dini ham o'z ta'sirini ko'rsatgan edi[7]. Chishtiya ta'limotiga ko'ra, Alloh barchani teng yaratgani uchun uning bandalari yer-zaminda barobar bo'lib yashamolari lozim. Shuning uchun dardmandlarning dardiga darmon bo'lmoq, ochlarni to'ydirmoq oliyjanob insoniy fazilatdir. Bu ta'limotga ko'ra, har bir mo'min banda daryodek saxiy, oftobdek nurafshon, zamindek ta'zim-tavozeda bo'lmo'g'i darkor. Zeroki, Alloh o'zining shunday bandalarini sevadi. Tenglik va insonparvarlikni targ'ib etgani uchun oddiy mehnatkashlar chishtiya tariqatiga ergashdilar. Ushbu ta'limotning aoschisi bo'lgan Muyiniddin Chishtiyy Hirot yaqinida tug'ilib, keyinchalik Hindistonda o'z tasavvufiy qarashlarini tarqatgan[8].

O'zaro urushlar, diniy va milliy nizolar va tortishuvlar Hindiston xalqlarining birligini barbod qildi, mamlakat iqtisodiy hayotiga behad ziyon yetkazdi, ommaning turmushiga og'ir ta'sir etar edi. Ijtimoiy hayot, xalqning turmush sharoiti qanchalik og'ir bo'lishiga qaramay, bu davrda Hindistonda fors-tojik va hind tillarida yaratilgan adabiyot namunalari xalqlarning ma'naviy-axloqiy tafakkuri taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Hindistonda Bobur, Xumoyun, Akbar va Shohjahonlar hukmronligi davrida musulmonlar va hindular o'rtasidagi do'stona munosabat, diniy bag'rikenglik g'oyalari hind xalqi bilan musulmon xalqlari tinch-totuv yashashiga mustahkam zamin bo'lgan. Bularning hammasi Bedil dunyoqarashining shakllanishiga o'zining hayotbaxsh ta'sirini ko'rsatgan. O'z navbatida, Bedil ijodi hindular va Hindistondagi musulmonlar xalqlari o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

Mirzo Abdulqodir Bedilning ijtimoiy-axloqiy va falsafiy-irfoniy dunyoqarashi bevosita XVI-XVII asrlar O'rta Osiyodagi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayot bilan, islom dini va tasavvuf ta'limoti bilan chambarchas bog'liq, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bedil falsafiy qarashlarida inson va jamiyat masalasi aynan o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy axloqiy muhiti doirasida, o'sha davrda ijod etgan hind va turkiy xalq mutafakkirlarining qalashlari ta'sirida shakllandi va ravnaq topdi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mirzo Abdulqodir Bedil nasriy va nazmiy yo'sinda yozilgan, tarixiy shaxslar – zamondoshlari hayoti va qarashlari haqidagi qimmatli ma'lumotlar, qiziqarli hayotiy lavhalar, falsafiy fikr va mushohadalar hamda ibratli qisqa hikoyalardan iborat bo'lgan mashhur asari – “Chahor unsur” (“To'rt unsur”)ning “Unsuri avval”ida “Inson ruhi basit (oddiy, bo'linmas) javhar (mohiyat, substansiya) bo'lib, latofat (go'zallik, latiflik) jihatidan barcha ashyolarni qamrab oladi”[9], deydi.

Bedilning “Chor unsur” asarida yozilishicha, 14 yoshida qarindosh-urug'lari bilan birinchi sayohatga chiqadi. Bixor va Bangolordagi mahalliy rojaliklarni borib ko'radi. 1661 yilda mashhur mutasavvif Shoh Qosim Huvallu qo'lida 2 yil ta'lim oladi. Hind, arab va forsiy tillarni hamda ularda yaratilgan badiiy adabiyot bilan yaqindan tanishadi. 1663 yilda Bedil Dehlida Shoh Qobuliy nomli donishmand bilan tanishib, undan ruhiyat ilmini o'rganadi. Mirzo Bedil “Chor unsur” asarida mutasavvif so'fiy Shoh Qobuliy bilan tanishgani va undan o'rgangan ilmlari haqida ba'zi lavhalarni keltirib o'tgan. Unda ta'kidlanishicha, Bedil Dehlidan o'tib borishida mutasavvif izdoshlaridan birining qarindoshinikida yig'ilgan so'fiylarning majlisida ishtirok etadi va majlisda ishtirok etayotganlarning biridan mutasavvif Shoh Qobuliy haqida qiziqarli ma'lumot eshitib qoladi. Unda “Ushbu kunlarda allaqanday majzub bir vayronani o'z tashrif bilan bezabdi va shu maskanda yashab qolib, uni munavvar etibdi. Ahvoliga xos xususiyat shuki, qarshisiga qancha mo'l taom qo'ymasinlar, bu uning uchun o't-olovga xas-cho'p o'tmoqlik va qanchalik suv keltirmasinlar bu –tuproqqa tomchi tomizmoqlik kabitur.

Ul zot qanchalik hoksor bo'lmasin ulug'vorligidin salobati bosadiki, uning tamoyilini ko'z o'ngingga keltirmoqni istasang, aqlu idroking vahimasidan ranging bo'zarar va ulug'vorligi nuridan qo'rquv ichra ko'zing xira tortadi. Ziyoratiga borganimizda ul zot uyqu og'ushida edi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, ul zot go'yo soyada

uxlayotgan quyosh va girdobdan yashirin dengiz kabi edi”[10], - degan gaplarga guvoh bo'ladi. Bu suhbat Bedilning qalbida Shoh Qobuliyga nisbatan g'oyibona muhabbatni paydo bo'lishi va o'zining falsafiy-irfoniy qarashlarida yangi tasavvufiy qirralarni namoyon bo'lishiga turtki bo'ladi.

Bedil insonning koinot mavjudotlari orasida eng yuksak maqomda yaratilganini ta'kidlar ekan, kishilarning irqi, jamiyatdagi mavqeidan qat'iy nazar shu sharafli nomga munosib ko'rishni istaydi.

Bedilning nazarida inson mo'jizakor, ayni chog'da fitnalar manbaidir. Shuning uchun u odamdagi bu ikki xil tabiatni hisobga olish kerakligiga e'tibor qaratadi. Bedil insonning ulug'vorligini, aqliy layoqatini, ko'p narsalarni bajarishga qodir bir qutlug' zot ekanini, nutqi, ongi, aql-idroki bilan o'zga maxluqotlardan farq qilishini ko'rsatish bilan birga nomukammal, mol-mulkka chanqoq, o'jar insondan yaramas ishlar sodir bo'lishini ham ta'kidlab o'tadi. Ya'ni shoir insondagi oliyanob axloqiy-ruhiy xislatlar bilan birga salbiy illatlar ham mavjudligini yoritishga harakat qiladi.

Bedil o'zining “Irfon”, “Chor unsur” asarida inson borlig'ini tushuntirishda “bahri mutlaq” (komillik dengizi) tushunchasini kiritgan. U “Mutlaq bahr” deb ilohiy kuchga asoslangan mutlaq borliqni aytadi. Odamzod ana shu mutlaq borliqdan kuch va iroda bilan vujudga kelgan:

Bahri mutlaq issiq mavj urdi shunday,  
Bo'ldik o'zimizdan a'loga muhtoj[11].

Bedil hikmat – falsafa hamda handasaga oid salafklarining asarlarini o'rgandi. Amakisi Mirzo Qalandardan boshqa Hindistonning atoqli so'fiylari Mavloni Kamol, Shoh Qosim, Xuvallayhiy, Shoh Fozil, Shoh Abdulfayz, Mirzo Zarif degan kishilardan saboq oladi. Mirzo Bedil Shayx Kamol qo'lida mustaqil o'qigan. Bedilning aytishicha, Shayx Kamol ma'rifatparvar kishi bo'lib, hind tili va falsafasini yaxshi egallagan, shu sohalarida Bedil bilan suhbatlar o'tkazgan. Shayx Kamol vafotidan keyin Shoh Fozil, Shoh Abdulfayz ismli olimlardan ta'lim olgan.

Bedil hind xalqining hayoti, madaniyati va qadimgi yozma hamda og'zaki ijod yodnomalari bilan yaqindan tanishdi. Mamlakatdagi notinchlik va noxushliklardan qattiq iztirob chekdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mamlakatdagi ana shu voqealar, tashqi tomondan bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy tahdidlar, iqtisodiy nochorlik Bedil dunyoqarashiga, xususan, uning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, ma'rifiy qarashlariga ta'sir qildi. Bedil o'zining ijodida vatanparvarlik, insonparvarlik, turli din va mazhabdagi qavmlarning hamjihatligini targ'ib etdi. Chunki Hindistonda islom dini, hinduizm va boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar o'rtasida ham nizolar, kelishmovchiliklar bo'lib turar edi. Mirzo Bedil hind, eron, arab kabi ko'plab Osiyo halqlarining ilmiy merosini chuqur o'zlashtirgan yetuk faaylasuf olimdir. U 120 ming misradan ortiq chuqur falsafiy mazmundagi she'rlar va 20 bosma tabaqqa yaqin nasriy asarlar yozib qoldirgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XVII asrda Hindistonda tug'ilib o'sgan, ota-bobolari bizning vatandoshimiz bo'lgan ulug' shoir va faaylasuf Mirzo Abdulqodir Bedil qoldirgan boy ma'naviy meros, uning ta'limotida ilgari surilgan insonning mohiyati, uni ijtimoiy borliqni anglash mohiyati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mirzo Abdulqodir Bedil asarlari yoshlarda falsafiy tafakkurni shakllantirishda, diniy bag'rikenglik g'oyalarini singdirishda ulkan manbadir.

#### ADABIYOTLAR

1. <https://m.kun.uz/news/2021/10/11/amir-temur-tugilgan-xoja-igor-qishlogi-obodonlashtiriladi-shavkat-mirziyoyev>
2. Boltaboev H. Fitrat-bedilshunos // Bedil va o'zbek ma'naviyati: ilmiy maqolalar to'plami. -Tehron-Toshkent: Al-Xudo, Movarounnahr, 2005. - B. 35 b.
3. Ayniy X.S. Bedil i yego poema “Irfon”. - Stalinabad.: Tadjgosizdat, 1956. - 24 s.
4. Qodirov P. Xumoyun va Akbar. - T.: Sharq, 1994. - B. 498.
5. Ayniy X.S. Bedil i yego poema “Irfon”. Stalinabad.: Tadjgosizdat, 1956. - S. 24.

6. Нуритдинов М.И. Из истории общественно-философской мысли Средней Азии в XVI - XVII веках. Т.: Медицинской литературы имени Абу Али ибн Сины, 1996. - С.53.
7. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari.- Т.: Sharq, 2004. - В. 10 .
8. آوازهای بیدل. نثر ادبی (رقعات – نکات – اشارات – چهار عنصر). تصحیح: اکبر بهداروند. – تهران: موسسه انتشارات "نگاه". 1382. – ص. 353.
9. Бедиль. Избранное. - Душанбе: Ирфон, 1984. - С.160.
10. Shoaliev N. Bedil ijodida inson mohiyati //https://www.bukhari.uz/?p=24585